

## YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH: TARIXIY MEROS VA MILLIY G‘OYA

**Kamoliddinov Mirkomil Kamoliddin o‘g‘li**  
O‘zbekiston Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada, yoshlarni milliy g‘oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va ulug‘ ajdodlar merosi orqali yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi. Maqola, milliy qadriyatlar va tarixiy shaxslarning ahamiyatini yoritadi

**Kalit so‘zlar:** vatanparvarlik, milliy g‘oya, yoshlar tarbiyasi, ajdodlar merosi, tarixiy qadriyatlar.

Xalqimiz ma’naviy tabiatida tarixga nisbatan chuqur hurmat, ajdodlar merosiga bo‘lgan yuksak ehtirom va ular qoldirgan boy ma’naviy mulkni e‘zozlash kabi fazilatlar mustahkam ildiz otgan. O‘zgacha milliy an’analarimiz aynan mana shu qadriyatlar zamirida shakllangan. Vatanimiz tarixida munosib o‘rin egallagan o‘nlab allomalar – ulug‘ ajdodlarimizning ruhini ulug‘lash maqsadida yurtimizda ulkan yodgorliklar, memorial majmualar, haykallar barpo etildi. Shuningdek, ularning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan maxsus anjumanlar o‘tkazilishi, taniqli asar va kitoblarning nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi. Bunday tadbir va tashabbuslar, avvalo, jamiyatda, ayniqsa, yoshlar ongida chin vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish va mustahkamlash imkonini yanada kengaytirdi.

Bugungi globallashuv jarayonlari avj olgan davrda mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarning ta’lim-tarbiyasini rivojlantirish ularning dunyoqarashini o‘stirish, vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi avlodni shakllantirish masalalariga davlatimiz tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Sababi, millatparvar, vatanparvar, umuminsoniy ma’naviy fazilatlarga ega avlod har qanday jamiyat yoki davlatning tayanchi hisoblanadi. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PQ-5106- son farmonida buyuk davlat arbobi va sarkarda sohibqiron Amir Temurning vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoiylilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib hizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga «Temurbeklar maktabi»[1] nomi berilishi xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tarixiy ongini mustahkamlash va rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga molikdir.

2018 yil 23 fevralda tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”da yosh avlodni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari hamda muqaddas burch ekanini chuqur singdirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz va jonajon Vatanimizning istiqbol hamda taraqqiyoti yo‘lida fidokorona

kurash olib borgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish kabi masalalar ham konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari qatorida qayd etilgan.

Vatanparvarlik — insonning o‘z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga bo‘lgan chuqur ehtiromi, vijdoni, burchi va so‘ziga sadoqatida namoyon bo‘ladi. Agar shaxs bolalikdan o‘z xalqi, uning an‘analari, tili va madaniyatiga nisbatan muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiyalanmasa, unda haqiqiy vatanparvarlik hissi shakllanmaydi. Bu tuyg‘u ko‘p hollarda inson o‘z Vatanidan uzoqda bo‘lgan paytda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, turli sabablar bilan o‘zga yurtlarda umr kechirgan ko‘plab vatandoshlarimizning hayoti og‘riqli va hasratli kechgani bu borada o‘zaro bog‘liqlik va vatansizlik ruhiy iztiroblarini tasdiqlaydi.

Yoshlarda milliy ruh va vatanparvarlik tuyg‘ularini hosil qilish borasida, garchi bir qadar primitiv bo‘lsa-da, Germaniya tajribasi diqqatga sazovor. «XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniyada tarix darslarida milliy tarixga katta ahamiyat qaratilgan ekan, bu asosan tarixiy sanalar, nomlar, faktlardan iborat bo‘lib ular o‘quvchilar ongiga shunday singdirilar ediki, o‘quvchilar hatto uxlab yotganlarida ham savollarga javob bera olardilar. Tarixiy jarayonlarning o‘zoro bog‘liqligi uning kelib chiqish sabablari unchalik ahamiyatga ega emas edi. O‘qituvchilar o‘z iqtidoriga qarab, sayoz materialni boyitish uchun e‘tiborni o‘ziga tortadigan dramatik voqealarni aytib berishardiki, ular oxir oqibatda tarixiy manbalarga asoslangan ma‘lumotlar emas, balki muallimning katta fantaziyasi bo‘lib chiqardi. Ularning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdan iborat edi»[2]. Rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning to‘lik sikliga investitsiya kiritishga, ya‘ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrdauning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e‘tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15- 17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart [3].

Ayni ana shunday yosh davrida bola asta-sekin yaxshilik va yomonlikni farqlash, atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni anglash va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lib boradi. Uning beg‘ubor ongi bamisoli toza bosma qog‘oz singari oiladagi munosabatlar, yondosh muhitda kechayotgan voqelik va taassurotlarni o‘z ichiga singdiradi. Bolada ota-onasiga, bobo-momolariga nisbatan mehr va hurmat, shuningdek, uni o‘rab turgan muhitga bo‘lgan munosabat asta-sekin shakllanib, murakkab ruhiy-axloqiy tafakkurga aylanadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bola tengqurlari bilan muloqotga kirishadi, o‘yinlar orqali ijtimoiy tajriba to‘playdi, tarbiyachilar so‘zlab beradigan ertaklar, hikmatli matallar, hikoyalar, shuningdek, topishmoqlar orqali milliy-ma‘naviy qadriyatlar bilan tanishadi. Bu jarayon bola ongida ilk tarixiy ong va fahm-farosatning shakllanishiga, umumiy tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, u tarixiy xotira elementlarini o‘zlashtira boradi va shaxsiy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yadi.

Vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlikdan kuch oladi, deb alohida qayd etadilar. Vatanparvarlik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Prezidentimiz

aytganidek, “Har qanday davlat ma’naviy siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi”. Bu esa odamlarni o‘z ma’naviy bisotlari, intellektual mulklarini nechog‘li o‘zlashtirishlari, kitob mutolaasiga nechog‘lik kirishishlari bilan o‘lchanadi. Shu boisdan Prezidentimiz kitob mutolaasini rivojlantirish masalasini davlatimizning ustuvor siyosati darajasiga olib chiqdi[4].

Yangi davrning eng muhim xususiyatlaridan biri – mustaqil fikr yurita oladigan, muammolarni tahlil qilib, oqilona va maqbul qarorlar qabul qila oladigan, vatanparvar va yuksak ma’naviyatga ega shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday shaxslar jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Chunki har qanday davlatning ma’naviy salohiyati, avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning ta’sirchanligi, aholi a’zolarining kasbiy bilim va ko‘nikmalar darajasi, hamda jamiyatda qabul qilingan tartib, qoida va meyorlarga rioya etish madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017. № 27. – B.13.
2. Tarix va o‘zlikni anglash III: O‘zbekiston va Germaniyada tarixni yoritish. – Toshkent: Fan, 2008. – B.9
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, – 2021. – B.224.
4. “Таълим тизимидаги ислохотлар: олимлар ва ёшлар нигоҳида” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция тўплами // Тошкент, 2022 йил 29 сентябрь. – 229 б.